

QURILISH ISHLARI

yanvar-aprel 2020-yil


2020-yilning yanvar-aprel oylarida Qashqadaryo viloyatida jami **1329,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **86,8** % ni tashkil etdi.



jamiga nisbatan % da



2020-yil yanvar-aprel oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **174,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **3,0** % punktga kamaygan. Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **64,4** % i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan o'zgarish kuzatilmadi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **87,2** % ni tashkil qilgan holda **856,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.





Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,2** % punktga ko'payib, **22,3** % ni tashkil etdi va **298,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **98,4** % ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **88,2** mlrd. so'm yoki 2019-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **95,1** % ni tashkil qildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **1240,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sura'ti **86,3** % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi ulushlari mos ravishda **6,6** % va **93,4** % ni tashkil etdi.


 Davlat mulki

 Nodavlat mulk



Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni, (birlikda)


2020-yil 1-may holatiga qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **3126** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **13,8 %** ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **11,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **69,9 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **39,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,6 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **13,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **21,5 %**) o'sishidir.



Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni, (*birlikda*)

	Holatiga ko'ra		farqi (+,-)
	01.05.2019-yil	01.05.2020-yil	
Qashqadaryo viloyati	2746	3126	380
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	709	801	92
Shahrisabz	115	126	11
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	125	144	19
Dehqonobod	115	139	24
Qamashi	162	174	12
Qarshi	318	360	42
Koson	231	265	34
Kitob	118	126	8
Mirishkor	66	80	14
Muborak	161	183	22
Nishon	116	113	-3
Kasbi	121	142	21
Chiroqchi	156	194	38
Shahrisabz	97	111	14
Yakkabog'	136	168	32

Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalar soni 01.05.2020-yil holatida, birlikda




Ma'lumot uchun: viloyatda eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalarini soni bo'yicha Qarshi sh. (25,6 %), Qarshi (11,5 %) va Koson tumanlarida (8,5 %) qayd etildi.


Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **62,0 %** i yoki **823,8** mlrd. so'mlik qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turarjoy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **78,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi, yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **9,5 %** ni tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **469,1** mlrd. so'm, yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **56,9 %** ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **276,1** mlrd. so'm, yoki ularning jami yangi qurilish ishlaridagi ulushi **33,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari


(2020-yil yanvar-aprel)

(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirish
Qashqadaryo viloyati	1329,1	86,8	823,8
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	207,1	95,9	128,4
Shahrisabz	63,2	87,6	39,1
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	117,6	94,8	72,9
Dehqonobod	64,1	75,8	39,7
Qamashi	73,1	88,3	45,3
Qarshi	121,7	97,8	75,5
Koson	107,8	69,6	66,8
Kitob	77,9	90,0	48,3
Mirishkor	65,8	83,7	40,8
Muborak	73,2	87,4	45,4
Nishon	72,7	90,2	45,1
Kasbi	81,7	82,3	50,6
Chiroqchi	62,4	75,3	38,7
Shahrisabz	58,7	88,2	36,4
Yakkabog'	82,1	87,7	50,8

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi **5,4 %** ni yoki **52,6** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,9 %** punktga ko'paydi.




Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **5,5 %** punktga kamayib, **64,3 %** ni yoki **632,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,6 %** punktga ko'payib, **298,1** mlrd. so'mni yoki **30,3 %** ni tashkil etdi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)

2019-yil yanvar-aprel



2020-yil yanvar-aprel



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **30,5** % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **4,5** % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi mos ravishda **69,5** % ni tashkil etib, o'z navbatida o'tgan yildagi ko'rsatkich bilan solishtirganda **4,5** % punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **17,2 %** punktga kamaydi va **41,0 %** ni tashkil etdi. Qolgan **59,0 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **17,2 %** punktga ko'paydi.

(jamiga nisbatan, % da)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

(2020-yil yanvar-aprel)

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
		binolar va inshootlar qurilishi	fuqarolik qurilish obyektlari	ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Qashqadaryo viloyati	1329,1	982,7	190,6	155,8
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi	207,1	153,1	29,7	24,3
Shahrisabz	63,2	46,7	9,1	7,4
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	117,6	86,9	16,9	13,8
Dehqonobod	64,1	47,4	9,2	7,5
Qamashi	73,1	54,1	10,4	8,6
Qarshi	121,7	90,0	17,4	14,3
Koson	107,8	79,7	15,5	12,6
Kitob	77,9	57,6	11,2	9,1
Mirishkor	65,8	48,7	9,4	7,7
Muborak	73,2	54,1	10,5	8,6
Nishon	72,7	53,8	10,4	8,5
Kasbi	81,7	60,4	11,7	9,6
Chiroqchi	62,4	46,2	8,9	7,3
Shahrisabz	58,7	43,4	8,4	6,9
Yakkabog'	82,1	60,6	11,9	9,6


Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)



Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



Joriy davrda ham jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **64,4 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning nisbatan yuqori ulushi Shahrisabz, Qarshi va Yakkabog' tumanlarida qayd etildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng past ulushi esa Qarshi shahri hamda Koson tumaniga to'g'ri kelmoqda. Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining **22,4 %** i to'g'ri kelmoqda. Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektorning yuqori ulushi Kitob (**33,4 %**) hamda Nishon (**32,5 %**) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

A. Isayev

Aloqa telefoni:

(75) 221-32-47